ABDOMINAL SEMIZLIKGA UCHRAGAN BEMORLARDA SURUNKALI TOSHSIZ XOLESISTIT KASALLIGINI AMBULATOR SHAROITDA KECHISH XUSUSIYATLARI

Yuldashov J.A.
Urganch davlat tibbiyot instituti
Oilaviy shifokor tayyorlash kafedrasi PhD, dotsent
Matrasulova D.M.
Urganch davlat tibbiyot instituti
Oilaviy shifokor tayyorlash kafedrasi assistenti
Quramboev B.Sh.
Urganch davlat tibbiyot instituti magistr
Jumaniyazov A.A.
Urganch davlat tibbiyot instituti magistr

Mavzuning dolzarbligi: *O't yo'llari kasalliklari ovqat hazm qilish a'zolarining patologiyasi strukturasida eng keng tarqalgan bo'lib, ularning 11% ni tashkil qiladi. So'nggi 15 yil ichida ushbu kasalliklarning chastotasi ikki baravar oshdi [Nogaller A.M., 2000, Ivanchenkova. 2006, Sherloc S., 2001]. Mavjud statistik ma'lumotlarga ko'ra, abdominal semizlikga uchragan bemorlarda o't yo'llari kasalliklari bilan kasallanish 1000 aholiga 29,4 tani tashkil etadi. O't yo'llari patologiyalari orasida surunkali toshsiz xoletsistit (STX) asosiy o'rinlardan birini egallaydi.*

Maqsad: *Surunkali toshsiz xoletsistitni ambulator sharoitda diagnostika qilish xususiyatlarini o'rganish.*

Materiallar va usullar: Bemorlar Urganch shahri 1-sonli Oilaviy poliklinikada ro'yhatda turgan 30 nafar 45-65 yoshdagi ayol bemorlar, kasallik davomiyligi 3 yildan 10 yilgacha davom qilgan. Tashxis shikoyatlar, kasallik tarixi, fizik va instrumental tekshiruvlar asosida qo'yildi. O'tkazilgan tekshiruvlar: o't-pufagi ultratovush tekshiruvi, elektrokardiografiya, oshqozon ezofagogastroduodenoskopiya, jigar va oshqozon osti bezi ultratovush tekshiruvi ovqatdan oldin hamda keyin yuklama orqali tekshirildi.

Natijalar: Kuzatuvimizdagi bemorlarning 58% da o'ng qovurg'a ostida og'riqlardan va dispeptik buzilishlardan shikoyat qildi; 89 % bemorlarda psixovegetativ buzilishlar kuzatildi. Ob'ektiv tekshiruvlarda barcha bemorlarda og'riq sindromi aniqlandi. Bemorlarning 54%da ezofagogastroduodenoskopiya natijasida surunkali gastroduodenit qayd qilindi. O't pufagi ultratovush tekshiruvida 18 nafar bemorda o't suyuqligi qoldig'i aniqlanib, surunkali toshsiz xoletsistit gipomotor tipda,

12 nafar bemorda gipermotor tipda, bemorlrning 38% da surunkali pankreatit belgilari qayd qilindi.

Xulosa: Ambulator sharoitda abdominal semizlikga ega bemorlarda surunkali toshsiz xoletsistitni o'rganish shuni ko'rsatadiki, ko'p hollarda abdominal semizlikga ega bemorlarda surunkali toshsiz xoletsistit kasalligi surunkali gastroduodenit bilan birga kechadi. Bemorlarning ko'pchiligida surunkali toshsiz xoletsistit gipomotor tipda diskineziya aniqlandi, dispeptik va psixovegetativ buzilishlar bilan kechishi aniqlandi.